

“Uzbekistan Airways” nufuzli 2020PAX International Readership Awards mukofotini qoʻlga kiritdi, ushbu mukofot butun dunyo aviakompaniyalari oʻrtasida yoʻlovchilarga eng qulay sharoitlarni taʼminlaganligi uchun taqdim etiladi. Aviakompaniya “MDH mamlakatlari ichida biznes klass yoʻlovchilariga eng yaxshi toʻplam” nominatsiyasi boʻyicha ushbu mukofotga sazovor boʻldi.

Mukofot Kanadaning transport sohasida keytering va qulaylik yaratish masalalariga bagʻishlangan “PAX International” jurnali tomonidan taʼsis etilgan boʻlib, jurnal oʻquvchilari va haʼat aʼzolarining bergan ovozlari asosida topshiriladi. “Uzbekistan Airways” ushbu nufuzli mukofotga ikki yil ketma-ket sazovor boʻlmoqda.



THIS IS TO CERTIFY THAT  
UZBEKISTAN AIRWAYS  
HAS BEEN AWARDED A  
GOLD AWARD  
FOR  
BUSINESS CLASS ASIA/AUSTRALASIA  
SUPPLIED BY AK SERVICE  
IN THE  
TRAVELPLUS AIRLINE AMENITY AWARDS

TRAVELPLUS  
awards

  
Simon Ward, Founder



“Uzbekistan Airways” 2019-yil yakunlari boʻyicha “Travel Plus Awards” tanlovida ham oʻzining yetakchilik mavqeini yana bir bor tasdiqlab, “Osiyo / Avstraliya mintaqasidagi eng yaxshi biznes-klass toʻplami” nominatsiyasida gʻolib boʻldi.

“Travel Plus Awards” - ushbu soha tarixidagi ilk mukofotlardan biri boʻlib, u Angliyada tashkil etilgan va eng yaxshi yoʻl toʻplamlari uchun beriladi. Qarorni nafaqat ekspertlardan, balki yoʻlovchilar fikrini hisobga oladigan maxsus guruhdan tashkil topgan mustaqil hakamlar hayati qabul qiladi.

“PAX International Readership Awards” va “Travel Plus Awards” mukofotlari bilan taqdirlash marosimi odatda har yili bahorda Gamburgda boʻlib oʻtadigan World Travel and Catering EXPO koʻrgazmasi doirasida tashkil etiladi. Bu yil esa, epidemiologiya vaziyati tufayli PAX International barcha nominatsiyalar boʻyicha gʻoliblar roʻyxatini oʻzining saytida eʼlon qildi, “Travel Plus Awards” taqdirlash marosimi esa platformasida onlayn boʻlib oʻtdi.

Yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatish sifatini oshirish, servis ashyolarini ishlab chiqish va ularning turlarini kengaytirish “Uzbekistan Airways”ning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Biz pandemiyani yengishimizga, fuqaro aviatsiyasi yana dunyo boʻylab parvozlarini davom ettirishiga va “Uzbekistan Airways” dunyo aviatsiya hamjamiyatida oʻz mavqeini mustahkamlashda davom etishiga ishonamiz.



[Download PDF](#)